

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
OLIIY TA‘LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI  
TOSHKENT DAVLAT SHARQSHUNOSLIK UNIVERSITETI**



**INKLYUZIV TA‘LIM. GOSPITAL PEDAGOGIKA  
FANINING O‘QUV DASTURI**

**Bilim sohasi:** 100 000 – Ta‘lim  
**Ta‘lim sohasi:** 110 000– Ta‘lim  
**Ta‘lim yo‘nalishi:** 60110900 – Xorijiy til va adabiyot: ingliz tili

**Toshkent–2025**

Amaliy fanlar fakulteti dekani: \_\_\_\_\_




Vaxidov A.A.

“Pedagogika va psixologiya”  
kafedrası mudiri: \_\_\_\_\_



Abdullaeva Sh.X.

ARM boshligi: \_\_\_\_\_



Yuldasheva M.M.

<b>Fan/modul kodi</b> InkT.GP1404		<b>O'quv yili</b> 2026/2027	<b>Semestr</b> 4	<b>ECTS — Kreditlar</b> 4	
<b>Fan/modul turi</b> Majburiy		<b>Ta'lim tili</b> O'zbek		<b>Haftadagi dars soatlari</b> 4	
1.	<b>Fanning nomi</b>	<b>Auditoriya mashg'ulotlari (soat)</b>	<b>Mustaqil ta'lim (soat)</b>	<b>Jami yuklama (soat)</b>	
	Inklyuziv ta'lim. Gospital pedagogika	48	72	120	
2.	<p style="text-align: center;"><b>I. Fanning mazmuni</b></p> <p><b>Fanni o'qitishdan maqsad</b> – talabalarni inklyuziv ta'lim va gospital pedagogikaning asosiy tushunchalari, maqsad va vazifalari bilan tanishtirish hamda maxsus ehtiyojli va davolanish jarayonidagi bolalarni qo'llab-quvvatlashga oid pedagogik yondashuvlar bo'yicha zarur bilim va ko'nikmalarni shakllantirish.</p> <p><b>Fanning vazifasi</b> - talabalarning nazariy bilimlar, amaliy ko'nikmalar, imkoniyati cheklangan bolalar ta'limi, inklyuziv ta'lim asoslari, Inson huquqlari umumjahon Deklaratsiyasi. BMTning aqliy jihatdan orqada qolagn shaxslarning huquqlari to'g'risidagi Deklaratsiyasi. Nogironlar huquqlari to'g'risidagi Deklaratsiya. BMTning Osiyo va Okeaniya mamlakatlari nogironlar huquqlarini muhofaza qilish chora-tadbirlari dasturi. Nogironlar uchun teng imkoniyatlar omillarini aniqlash; nogironlikning ob'ektiv mezonlarini aniqlash, individual rivojlanish qonuniyatlarini o'rnatish, talabalarning amaliy faoliyatida olgan bilim, ko'nikmalarini kasbiy faoliyatida qo'llay olishiga erishish.</p> <p>Mazkur fan dasturi xalqaro tan olingan reytinglarda birinchi top 300 talik ro'yxatga kiruvchi <b>Garvard universiteti</b> (THE 5) xorijiy tajribasini inobatga olgan holda takomillashtirildi.</p> <p><a href="https://courses.my.harvard.edu/dw_course/hgse_crse_cat.pdf">https://courses.my.harvard.edu/dw_course/hgse_crse_cat.pdf</a></p> <p style="text-align: center;"><b>II. Asosiy nazariy qism (ma'ruza mashg'ulotlari)</b></p> <p style="text-align: center;"><b>II.I. Fan tarkibiga quyidagi mavzular kiradi:</b></p> <p style="text-align: center;"><b>1-mavzu. Inklyuziv paradigma: aksiologik va ijtimoiy-psixologik yondashuv.</b></p> <p>Alohida ta'lim ehtiyojiga ega bo'lgan bolalar uchun ta'lim imkoniyatlarining tarixiy rivojlanishi. Jamiyatda alohida ehtiyojli bolalarga nisbatan yondashuvning bosqichma-bosqich insonparvarlashuvi. Ta'lim tizimida segregatsiya, integratsiya va inklyuziya bosqichlarining shakllanishi. Inklyuziv ta'limni qo'llab-</p>				

quvvatlovchi xalqaro me'yoriy asoslar (Salamanka deklaratsiyasi, BMT hujjatlari va boshqalar). Inklyuziv ta'limning asosiy tamoyillari: teng imkoniyat yaratish, moslashtirilgan o'qitish, pedagogik va psixologik qo'llab-quvvatlash. Alohida ta'lim ehtiyojiga ega bolalar uchun inklyuziv muhitni shakllantirishda uchraydigan amaliy muammolar va ularning yechimlari. Zamonaviy inklyuziv ta'limning rivojlanish tendensiyalari va innovatsion pedagogik yondashuvlar.

### **2-mavzu. Inklyuziv ta'limni joriy etish muammolari. Inklyuziv ta'lim asoslari.**

Inklyuziv ta'lim tushunchasi. Inklyuziv ta'limning rivojlanish tarixi. Inklyuziv ta'lim madaniyati. Integratsiyalashgan ta'lim. Inklyuziv ta'limni joriy etish muammolari. Inklyuziv ta'limning rivojlanish tarixi. Xorijiy mamlakatlarda inklyuziv ta'lim.

### **3-mavzu. Inklyuziv ta'lim tamoyillari.**

Inklyuziv ta'limning e'tirof etilishi. Inklyuziv ta'limning barcha uchun ochiq bo'lishi tamoyili. Ta'limga uyg'unlashish tamoyili. Hamkorlik qilish tamoyili. Markazlashtirilmaslik tamoyili. Inklyuziv ta'limda kompleks yondashuv tamoyili. Inklyuziv ta'limda moslashuvchanlik tamoyili. Mutaxassislarining kasbiy kompetentligi tamoyili. Inklyuziv ta'limga bo'lgan ehtiyoj.

### **4-mavzu. Alohida ta'lim ehtiyojiga ega bolalarning o'ziga xos xususiyatlari**

Alohida ta'lim ehtiyojiga ega bolalarning rivojlanish sur'atlari va individual o'zgaruvchanligi. Idrok, diqqat, xotira va tafakkur jarayonlaridagi o'ziga xosliklar. Muloqot va ijtimoiy ko'nikmalar shakllanishidagi farqlar. O'quv faoliyatini tashkil etishda qo'shimcha pedagogik qo'llab-quvvatlash zarurati. Emotsional holat va xulq-atvor reaksiyalaridagi o'ziga xos jihatlari. O'quv muhitini moslashtirish va differensial yondashuvning ahamiyati. Ota-ona, pedagog va mutaxassislar hamkorligining rivojlanish jarayoniga ta'siri

### **5-mavzu. Alohida ta'lim ehtiyojiga ega bolalarni inklyuziv ta'lim vositasida o'qitish va tarbiyalashni tashkil etish**

Alohida ta'lim ehtiyojiga ega bolalar uchun ta'lim jarayonini individual rejalashtirish. O'quv muhitini moslashtirish: didaktik materiallar, texnik vositalar va pedagogik yondashuvlarni o'zgartirish. Differensial va individual yondashuv asosida o'qitish jarayonini tashkil etish. Inklyuziv sinfda pedagog,

psixolog, logoped va defektologning hamkorlikdagi faoliyati. Tengdoshlar bilan qo'shma faoliyatni tashkil etish orqali ijtimoiy integratsiyani qo'llab-quvvatlash. O'quv jarayonida ijobiy munosabat, tolerant muhit va psixologik xavfsizlikni ta'minlash. Ota-ona va maktab hamkorligining bola rivojiga ta'siri va qo'llab-quvvatlash mexanizmlari. O'qituvchining inklyuziv kompetensiyasini oshirish va doimiy metodik yordamdan foydalanish.

#### **6-mavzu. Alohida ta'lim ehtiyojiga ega bolalarning individual ta'limiy marshruti modeli**

Bola rivojlanishining boshlang'ich diagnostikasi va asosiy ehtiyojlarni aniqlash. Individual ta'lim maqsadlari va kutilayotgan natijalarni belgilash. O'quv jarayonini moslashtirish: dastur, metod, vosita va sharoitlarni o'zgartirish. Pedagogik, psixologik va sog'liqni saqlash mutaxassislarining kompleks yondashuvi. O'quvchi uchun individual qo'llab-quvvatlash chizig'ini (support plan) ishlab chiqish. O'quv faoliyatini muntazam monitoring qilish va natijalarga ko'ra marshrutni qayta ko'rib chiqish. Ota-onalar bilan hamkorlikda rivojlanish dinamikasini kuzatish. Ta'lim muhitini moslashtirish orqali bolaning ijtimoiy integratsiyasini ta'minlash.

#### **7-mavzu. Maktablarda xavfsiz va insonparvar muhit yaratishning ahamiyati**

Insonning hayot faoliyati uchun qulay muhit tushunchasi va uning tarkibiy komponentlari. Alohida ta'lim ehtiyojiga ega shaxslar uchun makon va sharoitlarni tashkil etish. To'siqsiz muhitning o'ziga xos xususiyatlari. Jahon tajribasida baryersiz ijtimoiy-madaniy makonlarni tashkil etish misollari. Baryersiz makonning professional faoliyatni amalga oshirish sharti sifatidagi o'rni.

#### **8-mavzu. Kommunikatsiya va professional o'zaro hamkorlik etikasi**

Etika — ilmiy bilim sohasi sifatida. Etikaning amaliy jihatlari. Alohida ta'lim ehtiyojiga ega shaxslar bilan munosabatlarda etik muammolar. Samarali kommunikatsiyani yo'lga qo'yish. Effektiv muloqotda qo'llaniladigan psixologik usullar. Ijobiy va samarali professional o'zaro hamkorlikni ta'minlovchi shart sifatida sheriklik munosabatlari.

#### **9-mavzu. Alohida ta'lim ehtiyojiga ega bolalarning psixologik xususiyatlari**

Intellektual rivojlanishida cheklovlari bo'lgan bolalarning psixologik

xususiyatlari Sensor rivojlanishida cheklovlari bo'lgan bolalarning psixologik xususiyatlari Bolalar serebral falaji (BSF) bo'lgan bolalarning psixologik xususiyatlari. Emotsional va ijtimoiy rivojlanishida cheklovlari bo'lgan bolalarning psixologik xususiyatlari. O'quv faoliyati va motivatsiya xususiyatlari.

### **10-mavzu. Inklyuziv ta'limda psixologik-pedagogik texnologiyalar**

Moslashirilgan va differensial o'qitish texnologiyalari. Kompensator va rivojlantiruvchi texnologiyalar. Alternativ va qo'llab-quvvatlovchi kommunikatsiya (AAC) vositalari. Multimodal o'qitish va sensor integratsiya elementlari. Ijtimoiy-emotsional rivojlanishni qo'llab-quvvatlash texnikalari. Mutaxassislar (psixolog, logoped, defektolog) hamkorligiga asoslangan kompleks yondashuv. Inklyuziv sinfda qulay, baryersiz muhit yaratish texnologiyalari.

### **11-mavzu: Gospital pedagogika asoslari.**

Bemor bolalar bilan olib boriladigan ijtimoiy-pedagogik ishlarni tashkil etish. Bemor bolalarni ta'lim tizimiga jalb etishda ota-onalar, oila va jamoatchilik bilan ishlash. Bemor bolalar bilan ishlovchi resurs o'qituvchi va ijtimoiy pedagogning ish faoliyati va mas'uliyati. Bemor bolalarda ta'lim tizimida pedagogik ishlarni tashkil etishning maqsadi, shakllari va vositalari orqali samaradorlikni ko'rsatish usullari.

### **12-mavzu. Bemor bolalar ta'limi. Bemor bolalarning rehabilitatsiya va adaptatsiya jarayonlari.**

Bemor bolalar ta'limini tashkil etish. Gospital maktabi va uydagi ta'lim. Bemor bolalarga integratsiyalashgan ta'lim sharoitlarida yordam ko'rsatishning G'arbiy Yevropa tajribasi. Markaziy Osiyo mintaqalari, Sharqiy, Janubiy va MDH davlatlarida inklyuziv ta'limning joriy etilishi. O'zbekiston Respublikasida inklyuziv ta'limni qo'llab-quvvatlashning tashkiliy va me'yoriy asoslari.

## **III. AMALIY MASHG'ULOTLAR BO'YICHA KO'RSATMA VA TAVSIYALAR**

Amaliy mashg'ulotlarda talabalar "Inklyuziv ta'lim. Gospital pedagogika" fanidan ma'ruza darslarida olgan nazariy bilimlarini mustahkamlash bilan birga, amaliy mashg'ulotlar mavzulari bo'yicha tayyorgarlik ko'rish jarayonida qo'shimcha adabiyotlar va tarixiy manbalar bilan tanishish orqali qo'shimcha bilim va xulosalar chiqarish ko'nikmalarini shakllantirishdan iborat. Natijada ularning bilim doiralari ilmiy jihatdan asoslangan holda kengayadi.

"Inklyuziv ta'lim. Gospital pedagogika" fani bo'yicha amaliy mashg'ulotlarga tavsiya etiladigan mavzular:

1. Inklyuziv paradigma va jamiyatda alohida ta'lim ehtiyojiga ega bolalarga munosabatning rivojlanish bosqichlari
2. Inklyuziv ta'limni joriy etish jarayonidagi amaliy muammolar va xorijiy tajribalar tahlili
3. Inklyuziv ta'lim tamoyillari: ochiqlik, hamkorlik va moslashuvchanlik yondashuvlarining mazmuni
4. Alohida ta'lim ehtiyojiga ega bolalarning rivojlanish xususiyatlari va pedagogik qo'llab-quvvatlashning ahamiyati
5. Inklyuziv ta'limda o'qitish va tarbiyalash jarayonini tashkil etishning samarali strategiyalari
6. Individual ta'limiy marshrut: diagnostika, maqsad qo'yish va qo'llab-quvvatlash mexanizmlari
7. Maktablarda xavfsiz va insonparvar muhit yaratish: to'siqsiz makon konsepsiyasi va jahon tajribasi
8. Kommunikatsiya etikasi: alohida ta'lim ehtiyojiga ega shaxslar bilan samarali o'zaro muloqot tamoyillari
9. Alohida ta'lim ehtiyojiga ega bolalarning psixologik rivojlanish xususiyatlari: intellektual, sensor, motor, emotsional va o'quv faoliyati tahlili
10. Inklyuziv ta'limda psixologik-pedagogik texnologiyalar: differensial, moslashtirilgan va qo'llab-quvvatlovchi metodlar
11. Gospital pedagogika: bemor bolalar bilan ishlashning ijtimoiy-pedagogik asoslari va reabilitatsiya jarayoni
12. Bemor bolalar ta'limi va integratsiyasi: gospital maktablari, uyda o'qitish va xalqaro model tahlili

#### **IV. MUSTAQIL TA'LIM VA MUSTAQIL ISHLAR**

##### **Mustaqil ta'lim uchun tavsiya etiladigan topshiriqlar:**

- o'tilgan mavzuni chuqur o'rganishlari uchun darslik, o'quv materiallari bilan faol ishlash;
- ma'ruza, amaliy mashg'ulotlar va imtihonlarga oldindan tayyorgarlik ko'rish, vaqtdan unumli foydalanish;
- fan (modul)lar bo'yicha mustaqil ta'lim topshiriqlarini belgilangan muddatlarda taqdim etishi;
- mustaqil ta'lim topshiriqlarini bajarishda plagiat (ko'chirmakashlik)ga yo'l qo'ymasligi;
- kichik guruhlarda hamkorlikdagi mustaqil ta'lim topshiriqlarini bajarishda jamoaning umumiy maqsadiga mos harakat qilishi, o'ziga yuklatilgan

vazifalarni o'z vaqtida bajarishi.

*Mustaqil ta'limni tashkil etishda fanning xususiyatini inobatga olgan holda quyidagi shakllardan foydalanish tavsiya etiladi:*

- mavzu yuzasidan tahliliy ma'lumot (esse) tayyorlash;
- badiiy-ijodiy ishni bajarish;
- kurs ishi (loyihasi)ni bajarish;
- aniq mavzu bo'yicha tahliliy taqdimot (prezentatsiya) tayyorlash;
- berilgan muammoni keng tahlil qilish, unga ta'rif va xulosalarni berish;
- amaliyotdagi mavjud muammoning yechimini topish, test, munozarali savollar va topshiriqlar tayyorlash orqali loyihalar ishlash ko'nikmasini shakllantirish;
- ilmiy maqola, tezislarni va ma'ruza tayyorlash;

**"Inklyuziv ta'lim. Gospital pedagogika"** fanidan mustaqil ish sifatida quyidagi mavzulardan berilishi tavsiya etiladi:

1. Inklyuziv ta'limning xalqaro-huquqiy asoslari: Salamanca deklaratsiyasi va BMT konvensiyasining tahlili
2. Segregatsiya, integratsiya va inklyuziya: uch modelning ta'lim jarayoniga ta'siri va farqlari
3. Alohida ta'lim ehtiyojiga ega bolalar uchun o'quv muhitini moslashtirishning zamonaviy usullari
4. Inklyuziv sinfdagi pedagogning kasbiy kompetensiyasi: zarur ko'nikmalar va rivojlantirish yo'llari
5. Alohida ta'lim ehtiyojiga ega bolalarning psixologik portreti: intellektual, sensor, motor va emotsional xususiyatlar
6. Individual ta'limiy marshrut (ITM) tuzish algoritmi: diagnostika — rejalashtirish — monitoring
7. Sensor buzilishlar bo'lgan bolalar bilan ishlashda multimodal o'qitish texnologiyalari
8. Inklyuziv ta'lim jarayonida alternativ va qo'llab-quvvatlovchi kommunikatsiya (AAC) vositalari
9. Ota-ona, pedagog va mutaxassislar hamkorligi: inklyuziv ta'limda samarali interaktsiya modeli
10. Maktablarda to'siqsiz (baryersiz) muhit yaratish: jahon tajribasi va O'zbekiston sharoitida qo'llash imkoniyatlari
11. Gospital pedagogika texnologiyalari: bemor bolalarning reabilitatsiyasi va psixologik qo'llab-quvvatlash
12. Uydagi ta'lim va gospital maktablari tajribasi: Yevropa, Osiyo va MDH mamlakatlari misolida tahlil
13. Alohida ta'lim ehtiyojiga ega bolalarda ijtimoiy-emotsional ko'nikmalarni

	<p>shakllantirish usullari</p> <p>14. Inklyuziv ta'limni joriy etishdagi muammolar: psixologik, metodik, tashkiliy va infratuzilmaviy omillar</p> <p>15. Inklyuziv ta'lim muhitida tengdoshlar orasida tolerantlik va ijobiy munosabatlarni shakllantirish strategiyalari</p> <p>Mustaqil o'zlashtiriladigan mavzular bo'yicha talabalar tomonidan taqdimot tayyorlash tavsiya etiladi.</p>
3.	<p><b>V. Fan o'qitilishining natijalari (shakllanadigan kompetensiyalar)</b></p> <p>Fanni o'zlashtirish natijasida talaba:</p> <ul style="list-style-type: none"> <li>- talaba inklyuziv ta'lim va gospital pedagogika fanining maqsad va vazifalari, inklyuziv ta'lim muammolari, prinsiplarini <b>bilishi kerak</b>;</li> <li>- inklyuziv ta'limning nazariy va uslubiy jihatdan internet ma'lumotlari, yangi adabiyotlarni OAV tomonidan e'lon qilinayotgan inklyuziv ta'lim haqidagi manbalarni mustaqil tadqiq qilish o'rganish <b>ko'nikmalariga ega</b> bo'lishi kerak.</li> <li>- inklyuziv ta'lim manbalari tavsiflari, inklyuziv ta'limni tashkil etish bo'yicha tashkil etilgan ilmiy markazlar materiallaridan foydalanish malakalariga ega bo'lishi kerak.</li> </ul>
4.	<p><b>VI. TA'LIM TEXNOLOGIYALARI VA METODLARI:</b></p> <ul style="list-style-type: none"> <li>• videomahsulotlardan foydalanish;</li> <li>• grammatik-tarjima metodi;</li> <li>• audiovizual metod;</li> <li>• namoyish qilish (demonstratsiya) metodi;</li> <li>• interfaol keys-stadilar;</li> <li>• rolli o'yinlar ( mantiqiy fikrlash, tezkor savol-javoblar);</li> <li>• guruhlarda ishlash;</li> <li>• individual loyihalar;</li> <li>• jamoaviy loyihalar;</li> <li>• event texnologiya;</li> <li>• tanqidiy fikrlashni rivojlantiruvchi texnologiyalar;</li> <li>• organayzer (Klaster, Baliq skeleti, Ajurli arra, FSMU, Bumerang, Insert, BBB)lar;</li> <li>• infografikalar yaratish va boshqalar.</li> </ul>
5.	<p><b>VII. ASOSIY VA QO'SHIMCHA O'QUV ADABIYOTLAR HAMDA AXBOROT MANBALARI</b></p> <p style="text-align: center;"><b>Asosiy adabiyotlar</b></p> <ol style="list-style-type: none"> <li>1. Madatov I. Inklyuziv ta'lim. Darslik– Toshkent: Best Publish, 2024. - 239 b.</li> <li>2. Qodirova F.U., Pulatova D.A. Inklyuziv ta'lim va metodika. Darslik - Chirchiq: "Chirchiq", 2020. — 331</li> </ol>

3. Ахметова, Д. З. Инклюзивная педагогика : учебное пособие / Д. З. Ахметова, А. В. Тимирязова, Т. А. Челнокова. – Казань : Изд-во «Познание» Казанского инновационного университета, 2019. – 174 с.

#### Qo'shimcha adabiyotlar

1. Mirziyoyev Sh.M. Hozirgi zamon va Yangi O'zbekiston. – Toshkent: O'zbekiston, 2024.
2. Mirziyoyev Sh.M. Yangi O'zbekistonda erkin va faravon yashaylik. 5-jild. – Toshkent: O'zbekiston, 2023.
3. Mirziyoyev Sh.M. Yangi O'zbekistonda taraqqiyot strategiyasi asosida demokratik islohotlar yo'lini qat'iy davom ettiramiz. 6-jild. – Toshkent: O'zbekiston, 2023.
2. Asqarova O'.M. Pedagogika: Oliy ta'lim muassasalari uchun darslik / U.M. Askarova, M. Xayitboyev, M.S. Nishonov, 2008. - 287 b
3. Botirova D.B. "Yosh davrlar pedagogik psixologiyasi", Darslik. T, 2021y
4. Kuchkarova L.S., Karimova I.I. Yosh davrlar fiziologiyasi va gigienasi. Darslik. –T.: "Universitet" nashriyoti, 2017. – 308 b.
5. Левшунова Ж.А. Инклюзивное образование: учеб. пособие. Красноярск: Сиб. федер. ун-т, 2017. – 114 с.
6. Mavlonova R va boshq. Pedagogika. O'quv qo'llanma. – Toshkent, "O'qituvchi", 2001.
7. Педагогика. Под ред. В.А. Сластенина. Учебное пособие- Москва, "Владос", 2013.
8. Шаюсупова А.А., Хайдарова Р.А. Педагогика: Учебно-методическое пособие.-Т.:ТашГИВ, 2015

#### Scopusdan maqolalar

1. Dilafruz Bozorovna Botirova, Markhabo Raxmonkulovna Abdullayeva, Ilkhom Yusupovich Khaydarov, Ra'no Anvarovna Khaydarova, Shaxnoza Sharofovna Sharofova// *Social Psychological Features of the Process of Professional Stress* <https://powertechjournal.com/index.php/journal/issue/view/28>

2. Southworth, J., Migliaccio, K., Glover, J., Glover, J., Reed, D., McCarty, C., Brendemuhl, J., & Thomas, A. (2023). *Developing a model for AI Across the curriculum: Transforming the higher education landscape via innovation in AI literacy. Computers and Education: Artificial Intelligence, 4, 100127.* <https://doi.org/10.1016/j.caeai.2023.100127>

#### Axborot manbalar

1. [www.gov.uz](http://www.gov.uz)
2. [www.zivo.net](http://www.zivo.net)
2. [www.uzsci.net](http://www.uzsci.net)
3. [www.zipsites.ru/books/index](http://www.zipsites.ru/books/index).
4. [www.pedagog.uz](http://www.pedagog.uz)

7.	<p>Fanning o'quv dasturi Pedagogika va psixologiya kafedrasidan ishlab chiqilgan va 2025 yil "26" 06 dagi 11 -sonli bayonnomasi bilan ma'qullangan.</p> <p>Fanning o'quv dasturi Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti Kengashining 2025 yil "28" 06 dagi 11 -sonli bayoni bilan tasdiqlangan.</p>
8.	<p><b>Fan/modul uchun ma'sullar:</b></p> <ol style="list-style-type: none"> <li>1. Xaydarova R.A. – TDSHU Pedagogika va psixologiya kafedrasida katta o'qituvchisi</li> <li>2. Murodullayev N.B.- TDSHU Pedagogika va psixologiya kafedrasida o'qituvchisi.</li> </ol>
9.	<p><b>Taqrizchilar:</b></p> <ol style="list-style-type: none"> <li>1. Rashidova Z.O.– O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti katta o'qituvchisi, PhD.</li> <li>2. Maxkamova S.X. – Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti Pedagogika va psixologiya katta o'qituvchisi, p.f.n.</li> </ol>

248